ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Resume. The article examines word-initial consonant clusters in modern Uzbek in comparison with the phonotactics of Russian, the main donor language of the lexis containing such clusters. Based on a dictionary sample, the inventory of initial consonant sequences is established: 73 two-member sound realizations attested in 565 words and 8 three-member models attested in 26 words; four-member and longer clusters are not attested as normative models. Two-member clusters fall into six structural types (TN, SN, ST, SS, TS, SAff) and three-member ones into four types (STN, SSS, SSN, STS); their statistical distribution is provided, including the frequency of consonants in the first and second positions of the cluster. It is shown that initial clusters are alien to the native Uzbek vocabulary and function mainly in Russian and international loanwords, whose adoption has led to the emergence of new syllable types CCV and CCCV in Uzbek. The paper also proposes a methodological distinction between the graphic model, the sound model, and the lexical representation of a cluster.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL – MADANIYAT KO'ZGUSI

Umurqulov Zafar Bekpo'latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Tilni madaniyat bilan bog'liqlikda o'rganishning ilk ildizlari V.Gumdoldt va A.A.Potebnya tadqiqotlariga borib taqaladi. V.Gumboldtning "millatim tilining sarhadlari dunyoqarashim chegaralaridir" degan fikri bu yo'nalishning shakllanishida metodologik ahamiyatga molikdir. V.Gumboldt til va madaniyat munosabati, tilning madaniyatga, madaniyatning tilga ta'siri haqida fikr yuritar ekan, asosiy omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etadi: 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda gavdalanadi; 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati tilda dunyoni alohida ko'rish orqali ifodalangan. Tilga har bir til uchun spetsifik bo'lgan "ichki forma" xosdir; 3) tilning "ichki formasi" – bu "xalq ruhi" madaniyatining ifodasidir; 4) til inson va uning atrofidagi dunyo orasidagi bog'lovchi bo'g'indir[1]. Keyinchalik esa V.Gumboldtning bu konsepsiyasi A.A.Potebnya, Boduen de Kurtene, R.O.Yakobson va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o'ziga xos holda talqin qilindi.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqida rus tilshunosi V.Vorobyov Sepirning "Til – madaniyat bilan chambarchas bog'liq: u "o'sadi", uni ifodalaydi, butun madaniyat rivojlanishining zaruriy shartidir", – degan g'oyasiga qo'shilgan holda, tilni ma'lum bir davrda va ma'lum bir joyda yashovchi xalq madaniyatining muhim bir qismi" ekanligini ta'kidlaydi. Olim fikrini davom ettirib, madaniyatning barcha jabhalarida tilning o'z muhiti borligini va til madaniyatdan ayro, ya'ni ijtimoiy meros bo'lib qolgan amaliy ko'nikma va g'oyalar majmuasidan tashqarida mavjud emas[2]", degan fikrni ilgari suradi. Shunga asoslanib, til va madaniyatni alohida tasavvur etib bo'lmaydi, u xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, an'analari, ma'naviyati va madaniyati bilan birga yashaydi.

Tilshunos N.Mahmudov tilni inson shaxsini namoyon etuvchi bosh omil hisoblaydi, bu bilan insonning inson bo'lishida tilning ta'siri beqiyos ekanligiga ishora qiladi va ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqishini ta'kidlaydi[3]. Tilni va nutqiy faoliyatni

[1] Iqtibos quyidagi manbadan olindi: Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, Издательский центр, 2001. – С. 59.
[2] Воробьев В.В. Лингвокулътурология. – Москва: Издательство Российского университета дружбы народо, 2006. – С.12.
[3] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012, №5. – Б. 6.

atroflicha, turli jihatlari asosida tadqiq qilish tilshunoslikning turli sohalarini vujudga kelishiga olib keldi.

N.Alefirenko madaniyatning kommunikativ funksiyasi haqida fikr bildirar ekan, hech qanday madaniyat alohida mavjud bo'lmasligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ma'lum bir madaniyat u yoki bu tarzda boshqa madaniyatga ta'sir qiladi. Bu holatda inson omilining o'rni kattaligi, bir shaxs yoki ma'lum bir madaniyat tomonidan orttirilgan tajriba boshqa odamlar, boshqa avlodlar va koinotning boshqa hududlarida joylashgan hamda kelajakdagi boshqa madaniyatlarning mulkiga aylanishi mumkin, deb ko'rsatadi[1].

Z.Sobitova til va madaniyat aloqasi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Til – madaniyatning mahsuli. U ajdodlardan meros bo'lib qolgan. Ba'zan, madaniyat til orqali o'zlashtiriladi, degan g'oya ilgari suriladi. Shuning uchun til madaniyatning ajralmas bir qismi, ayni paytda, milliy mentalitetni o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[2].

Nutqning idrok etilishining ham turli holatlari mavjud. Nutqning idrok etilishi so'zlovchi shaxs yonida ikkinchi bir shaxs, tinglovchi shaxs bo'lishini talab qiladi. Matnni idrok etilishida bu ikkala shaxs birligi muhimdir. Chunki matnda, avvalo, matn yaratuvchisining shaxsi: uning kimligi, qaysi kasb egasi ekanligi, saviyasi, qaysi mazmundagi, qanday shakldagi matn tuzayotgani, til birliklarining nutqiy jarayoniga mosini qo'llashi, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, tafakkur tarzi, tushunchalari o'z ifodasini topadi. Bunday matn uni tuzuvchi bilan saviyasi, tafakkur olami bir xil bo'lmagan shaxsga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu holatda uning idrok etilishi til va shaxs munosabatlaridagi muhim omil sanaladi. Shu bois, matn tahliliga turli jihatlardan yondashgan holda tahlil qilish lozim. D.Xudoyberganova matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganishda tadqiq obyektiga semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazaridan yondashish lozimligini qayd etadi va mazkur tadqiqotda shaxsni ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida kognitiv talqinni e'tirof etadi[3]. Ma'lumki, kognitiv faoliyat insonning dunyoni bilishidagi muhim faoliyat. Kognitologiyadagi muhim omillardan biri dunyoni anglash uni mavjudligicha tavsiflash va ta'riflab berishdir. Tadqiqotchi kognitiv tilshunoslikning asosiy omillaridan biri sifatida matn yaratilishini e'tirof etar ekan, matn yaratish nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning qoidalariga ham bo'ysunishini ko'rsatib o'tadi[4].

Tilning madaniyat bilan bog'liq va o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi V.N.Teliyaning lingvokulturologiya markazida madaniyat fenomeni mavjud bo'lgan inson haqidagi antropologik paradigma[5] to'g'risidagi qarashlari tilni antropotsentrik nuqtayi nazardan o'rganishni yanada kuchaytirdi. V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya insonga mo'ljallangan bo'lib, madaniy faktor tilga, til faktori esa insonga. Bu shuni ko'rsatadiki, antropotsentrik paradigma inson haqidagi fan bo'lib, markazida madaniyat fenomeni mavjud[6]. V.A.Maslovaga ko'ra, madaniyatni inson yaratadi va shu madaniyatda yashaydi. Aynan insonning ijtimoiy tabiati birinchi o'ringa chiqadi va shaxsning o'zi sotsial-madaniy hayotning subyekti sifatida faoliyat yuritadi[7].

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat masalalarini atroflicha yoritib bergan olim N.Mahmudov bu hodisalarning mohiyati haqida quyidagilarni bayon etadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki, aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyada madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuasi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati demakdir"[8]. Olim tilga ehtirom ko'rsatish kerakligini quyidagicha izohlaydi: "Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat, u insonga berilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e'tirofidir"[9].

"Insonning inson sifatida shakllanishining o'zi ham madaniyat bilan bog'liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining bar-

[1] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 49
[2] Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 24.
[3] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – Б. 12.
[4] Xudoyberganova D. Shu dissertatsiya. – B. 16–17.
[5] Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.:1996. – С. 122.
[6] Teliya V.N.Ko'rsatilgan asar. – B. 222.
[7] Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001. – Б. 117.
[8] Маҳмудов Н. Тилниг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... – Б. 10.
[9] Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 3.

chasi ham milliy madaniyat ko'zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari "nazorati"da bo'ladi. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta'sirida taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o'rinda voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi"[1].

Til shu til egasi bo'lgan xalq madaniyatining ifodachisi. Zero, milliy mentallikka xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar tilning barqaror birliklarida aks etadi[2]. Har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi mavjud bo'lganidek, dunyoni idrok qilishi, uni ifodalashi, tafakkur dunyosi ham shu xalqning qon-qoniga singib ketgan mentallik olami natijasi sifatida vujudga keladi. Shunga ko'ra, madaniyatlar turli xalqlarda turlichadir. Ma'lum bir xalq uchun madaniyat belgisi hisoblangan urf-odatlar, odob-axloq boshqa bir xalq uchun madaniyat belgisi bo'lmasligi isbot talab qilmaydi. Biroq insonning hayot faoliyatida madaniyatlilik belgisi mavjud bo'lmagan narsa bo'lmaydi. Inson borki uning faoliyatining biror qismida qaysi bir jihati bilan madaniyat namoyon bo'ladi. Madaniyat insonga xos bo'lgan xulq, odob. U muayyan xalqning ruhi bilan uyg'unlashgan holda singib ketgan bo'ladi va insonning tabiati bilan, insonning hayotdan va jamiyatdan, boshqalar va o'z tajribalaridan olgan saboqlari asosida o'sib boradi. Madaniyat an'anaviylik xususiyatiga ega bo'lsa-da, xalqning har bir vakili tomonidan bir xilda o'zlashtirilmagan va bir xilda bajarilmaydigan insoniylik belgisidir. Madaniyat urf-odatlar bilan ham bog'liq. O'zbek madaniyatida ota-onani qadrlash, ularning duosini olish barcha xonadonlarda singdirib boriladigan urf-odatlardandir. Shunga ko'ra, ota-onaga xizmatda bo'lish, ularni qadrlash, yordamga muhtoj bo'lib qolganda, yonida bo'lish farzandlik burchi va madaniyatlilik belgisidir. Madaniyat keng tushunchali hodisa, u salomlashishdan tortib, inson muloqotining barcha jarayonlari orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, muloqot jarayonida shaxs o'zini boshqara olishi, suhbat jarayonida suhbatdoshlarning mavqeini hisobga olish, keraksiz o'rinda muloqotga qo'shilmaslik, tinglash muloqot jarayoni bilan bog'liq madaniylik belgilaridir. Insonning yurish-turishida, muomalasida, kiyinishida, qarashlarida, xullas, barcha xatti-harakatlarida madaniyatlilik belgilari mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra, madaniyat insonni tavsiflovchi, uning jamiyatdagi o'rnini izohlovchi muhim belgidir. Til olamni ta'rif va tavsifini bayon etuvchi hodisa sifatida insonni ham, inson madaniyatining ham muhim ifodachisidir. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi shubhasiz fanda ushbu tushunchalarni bog'liqlikda o'rganish lozim deyiladigan qarorlarga olib keldi. Ushbu qarashlar asosida tilshunoslikning yangi, zamonaviy yo'nalishi lingvomadaniyatshunoslik alohida soha sifatida shakllanib, uning predmeti va vazifalari belgilab olindi. Bu sohaning obyekti sifatida til va madaniyat, predmeti sifatida til birliklari belgilangan holda til egalarining milliy-madaniy o'ziga xosligini tilda aks etishi sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, milliylikni ifoda etuvchi stereotiplarni belgilash, milliy urf-odatlarga xos ijtimoiy qarashlarni baholash, tilni madaniyatga ta'siri masalalari lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalaridan ekanligi qayd qilib o'tilgan. Madaniyat va madaniy an'analar milliy hisoblanib, til shu milliy madaniyat bag'rida paydo bo'lib, uni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu holat til va madaniyatning o'zaro aloqadorligini belgilovchi jihatidir.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida shakllanishiga zamin yaratib berdi. Bu sohaning asosiy vazifasi til va madaniyatni o'zaro uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, tilda madaniyatni aks etishi, til vositasida olamni anglash, mavjudlikni his etish, madaniyatga olib borishi bu qarashlarning mustahkam asosga ega ekanligidan dalolat beradi. Insonni inson sifatida shakllanib, taraqqiy etishida nutqiy jarayonning muhim o'rni borligi tarixiy haqiqat. Shunday ekan inson faoliyatidagi barcha jabhalar, jumladan, madaniyat shakllanishining ham asosi til bilan bog'liq bo'lganidek, xalq madaniyati til orqali ifodalangan fikrlarda o'z ifodasini topadi. Zero, til inson olami bilan bog'liq bo'lgan barcha tushunchalarning namoyon etuvchi vositadir.

Insonni ma'naviy dunyosini namoyon etuvchi muhim birliklar sifatida muayyan xalq tomonidan yaratiladigan xalq maqollari va hikmatli so'zlar alohida ajralib turadi. Xalq maqollari va hikmatli so'zlar insonni barkamollik sari yetaklashini, ma'naviy qadriyatlarni singdirishni yorqin vositasi sifatida o'zida xalq madaniyatini mujassam etadi. O'zbek xalqi madaniyatida insoniylik, odob-axloq, turli-toifadagi kishilarga bo'lgan munosabat, mehmondo'stlik, sabr-toqatlik, halollik, yaxshi xislatlilik kabi milliy o'zlikni anglatuvchi tushunchalar madaniyat fenomeni sifatida qadriyatlar hisoblanib kelinganligi xalq donishnomalarida o'z ifodasini topib kelgan. O'zbek xalq maqollari va hikmatlarining ifodasidagi muhim jihatlardan biri qiyoslashga asoslanishidir. Ushbu holat qiyoslashni universal tabiatli ifoda vositasi ekanligining namunasidir. Qiyoslash orqali xalq maqollarida narsa-hodisaning

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 62–63.

[2] Усмонов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б.7.

afzalligining ifodalanishi mohiyatni to'liq anglanishiga olib keladi.

O'zbek milliy madaniyatida xushmuomalalik, kishilar bilan muloqot jarayonida o'ylab gapirishga alohida e'tibor qaratilib kelingan. So'zlashish madaniyati kishi madaniyatining muhim qismini tashkil etishi e'tirof etilib, so'z va uning nutqda qo'llanilishi bilan bog'liq ko'plab maqollar va hikmatlar yaratilgan. Masalan, *"Aytilgan so'z – otilgan o'q"* maqolida aytilgan so'z otilgan o'qqa qiyoslangan. Ya'ni aytilgan so'zni ham, otilgan o'qni ham izga qaytarib bo'lmaydi. Ushbu maqol orqali so'zlaganda, suhbat jarayonida o'ylab, bilib so'zlash lozimligiga e'tibor qaratiladi. *"So'z nayzadan o'tkir"* maqolida so'z nayzaga qiyoslanib, yomon tillilikning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirilgan. Xalq maqollarida *yaxshining so'zi oltinga* (yaxshining so'zi – oltin), *qaymoqqa* (yaxshining so'zi – qaymoq) qiyoslangan holda narsalarning afzal jihatlarini ongda shakllanishiga olib kelingan bo'lib, muomala madaniyati xalq madaniyatining ajralmas qismi ekanligiga ishora qilinadi. Har bir til shu tilda so'zlovchilarning madaniyatini aks ettiruvchi vosita sifatida shu xalq qadriyatiga oid fenomenlarni o'zida mujassam etgan holda reallashadi.

Xalq og'zaki ijodida so'zning qudrati, uning inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri turli qiyoslashlar orqali ifodalangan. Jumladan, *"Shirin so'z jon ozig'i"* orqali so'zning nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki inson ruhiyatini oziqlantiruvchi, unga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, *"Yaxshi so'z – yarim davlat"* maqolida yaxshi so'z moddiy boylikka tenglashtiriladi. Mazkur qiyoslash orqali muomala jarayonida ishlatiladigan muloyim va o'ylangan nutq inson uchun katta ijtimoiy va ma'naviy vazifasini bajarishi ifodalanadi. Bu esa o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida so'zning yuqori baholanishini ko'rsatadi.

Yomon so'zning salbiy oqibatlari esa *"Achchiq til – zahar"* maqolida yorqin ifodalangan. Bu yerda til zaharga qiyoslanib, uning inson ruhiyatiga zarar yetkazuvchi, hatto ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi kuchga ega ekani anglatiladi. Xuddi shu mazmunga yaqin holda, *"Yomon so'z – yurakka tig'"* maqolida so'z tig'ga o'xshatilib, uning og'riqli va jarohat yetkazuvchi xususiyati ta'kidlanadi. Bu kabi qiyoslashlar orqali xalq yomon so'zning oqibatlaridan ogohlantiradi.

Demak, o'zbek xalqining nutq madaniyatiga oid qarashlari qiyoslashlar orqali chuqur aks ettirilgan bo'lib, bu jarayonda til egasining milliy tafakkuri, axloqiy me'yorlari va kommunikativ tajribasi mujassam topgan. Bu esa qiyoslashlarning nafaqat stilistik vosita, balki xalqning lingvomadaniy dunyoqarashini ifodalovchi muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq maqollarida qiyoslash munosabatlari ko'pincha *"-dan"* qo'shimchasi yordamida ifodalanib, bu shakl orqali predmet yoki hodisalarning belgi-xususiyatlari o'zaro solishtiriladi. Bunday qiyoslashlar til egasining baholash mezonlari, milliy tafakkuri va aksiologik qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, *"Til tig'i qilich tig'idan o'tkir"* maqolida tilning ta'sir kuchi qilich tig'iga qiyoslanib, undan ham o'tkirroq ekani ta'kidlanadi. Bu yerda *"-dan"* qo'shimchasi orqali ikki obyekt – til va qilich tig'i – o'zaro solishtirilib, tilning zarar yetkazish imkoniyati yanada kuchli ekanligi ifodalanadi. Mazkur qiyoslash orqali yomon so'zning oqibatlari haqida ogohlantiriladi. Shuningdek, *"Yaxshi so'z boldan shirin"* maqolida yaxshi so'zning ta'siri asal (bol)ga nisbatan ham yuqori qo'yiladi. Natijada, yaxshi so'zning inson ruhiyatiga yoqimli ta'siri kuchli baholanadi.

Ma'lumki, til xalqning turmush-tarzi, madaniyati, urf-odat, kechinmalarini ifodalash imkoniyati va ifoda vositalariga boy. Bu vositalar orqali ijtimoiy hayot va jamiyat hayotining barcha jihatlari bekam-u ko'st ifodalanishi mumkin bo'lganidek, til badiiy ta'sir vositasi sifatida inson olamini yorqinlashtiruvchi tilsimdir. Tilning ushbu vazifasi uchun xizmat qiluvchi badiiy matn lingvistik jihatdan keng qamrovli, chegaralanmas, cheksiz uslubiy imkoniyatlarga ega. Turli tasviriy ifodalar, ko'chimlar singari ushbu matn turida qiyos ham til, madaniyat va ijtimoiy voqelikni o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida olam manzarasini tasvirlash, shuningdek, xalq mentalitetiga xos bo'lgan, jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan odat, an'ana, va turli rasm-rusumlarni o'zida namoyon eta oladigan vositadir.

Qiyoslash asosida hosil bo'lgan xalq maqollarida xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalar va ajdodlarimizning urf-odatlari, an'analari aks etadi. Maqollarda xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi singib ketgan bo'ladi. Masalan, *"Mehnat bilan yer ko'karar. Duo bilan – el"*. (maqol) O'zbek xalqi duogo'y, oliyjanob, mehmondo'st xalqdir. Shu bois, yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod. Xonadonlarimiz bobo va momolarimiz, ota va onalarimiz duolari bilan rizqqa to'ladi, azaldan bizning xalqimiz duogo'y sifatida nom taratgan. Bu o'zbek xalqining mentalitetiga singib ketgan. *"Oltin olma – duo ol, Duo oltin emasmi"*. *"Olqish olgan omondir, Qarg'ish olgan yomondir"* kabi maqollar zamirida xalqning so'z qudrati haqidagi qarashlari aks ettirilgan. So'zga oshuftalik o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Ajdodlarimiz tilni aloqa vositasi emas, balki insonlar taqdiriga ta'sir qiluvchi kuch sifatida qarashgan. Bunday maqollar orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlar tizimi obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan, *"Mehnat – baxt kaliti"* maqolida mehnat tushunchasi kalitga qiyoslanib, inson baxti va farovon

hayotning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. *"Ota duosi – oltindan afzal"* maqolasi ham xalqning duoga bo'lgan yuksak e'tiqodini ifodalaydi. Bu yerda duo qimmatbaho metall – oltin bilan qiyoslanib, ma'naviy qadriyatlarning moddiy boylikdan ustun qo'yilishi aks etadi. Shu kabi qarashlar xalqning diniy-ma'naviy dunyoqarashi va oilaviy qadriyatlarini namoyon etadi. *"So'z – ko'ngil kaliti"* maqolida esa so'z inson qalbini ochuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. O'zbek xalqining asrlar davomida to'plagan ma'naviy-axloqiy qarashlari tajribasi, falsafasi, donishmandligi, milliy-madaniy qarashlari ifoda etilgan. Xalqimizga xos bo'lgan turli xislatlarni hikmatlar orqali tilimizga singib ketganligi tilni madaniyatni namoyon etuvchi vosita ekanligini ko'rsatadi.

Xalqning o'z millatiga, uning tiliga bo'lgan muhabbati tabiiy va mantiqiydir. Tariximizda vataniga, tiliga, madaniyatiga, urf-odatlariga cheksiz muhabbat tuyg'usini boshidan kechirmagan odam bo'lmasa kerak?! Bu his-tuyg'ular uning tilida juda aniq ifodalanadi. Keyingi yillarda milliy madaniyatimizga alohida e'tibor qaratilayotgani, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy ong muhim masala va xalqning yaxlitligi sifatida baholanayotgan bir vaqtda ona tili va til madaniyatining mushtarakligini lingvistik muammo sifatida o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda, qiyoslash asosidagi xalq maqollari xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari va madaniy tafakkurini o'zida mujassam etgan lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ularda til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning ma'naviy olamini, hayotiy falsafasini va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Rezyume. Maqolada qiyosiy ifodalar xalqning milliy o'zligi, turmush tarzi, urf-odatlari va ma'naviy olamini ifodalovchi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Har bir xalq vakili olam manzarasini o'ziga xos dunyoqarash asosida idrok etadi. Mazkur xususiyat milliylikning tilda aks etishida yaqqol namoyon bo'ladi. Qiyoslash munosabatlariga asoslangan ifodalarda milliy madaniyat unsurlarining ifodalanishi esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqaning yorqin dalilidir.

Resume. The article examines comparative expressions as one of the principal means of reflecting a nation's identity, way of life, customs, traditions, and spiritual world. Representatives of every nation perceive the worldview through the prism of their own outlook. This feature is clearly manifested in the expression of national identity through language. The representation of elements of national culture in expressions based on comparative relations serves as vivid evidence of the close relationship between language and culture.

Резюме. В статье сравнительные выражения рассматриваются как одно из основных средств отражения национальной идентичности, образа жизни, обычаев, традиций и духовного мира народа. Представитель каждого народа воспринимает картину мира сквозь призму собственного мировоззрения. Данная особенность ярко проявляется в выражении национальной специфики посредством языка. Отражение элементов национальной культуры в выражениях, основанных на отношениях сравнения, является наглядным свидетельством неразрывной связи языка и культуры.